

## ALEKSANDR FAYNBERGNING ‘VARAQ’ SHE’RIDA IJOD VA SO’ZGA BO’LGAN MUHABBAT

Esonaliyeva Xusnida Shavkatjon qizi

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

[husnidaesonaliyeva@gmail.com](mailto:husnidaesonaliyeva@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Aleksandr Arkadayevich Faynberg hayoti va ijodi, uning "Varaq" she'ri, she'rning asosiy mazmuni haqida ma'lumotlar beriladi. Shuningdek, she'rda qo'llangan har bir so'zni tahlil qilish orqali shoirning yuksak mahorati ochib beriladi.

**Annotation:** This article provides information about the life and works of Aleksandr Arkadyevich Faynberg, his poem "Leaf," and the main content of the poem. Additionally, the poet's high skill is revealed through the analysis of each word used in the poem.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются жизнь и творчество Александра Аркадьевича Файнберга, его стихотворение «Лист», а также основное содержание этого произведения. Кроме того, через анализ каждого слова, использованного в стихотворении, раскрывается высокий художественный мастерство поэта.

**Kalit so‘zlar:** Aleksandr Faynberg, "Varaq" she'ri, qiyos, tabiat bilan uyg'unlik, asosiy g'oya.

**Keywords:** Aleksandr Faynberg, poem "Leaf," comparison, harmony with nature, main idea.

**Ключевые слова:** Александр Файнберг, стихотворение «Лист», сравнение, гармония с природой, основная идея.

Adabiyot bu inson his-tuyg'ularini so'zlar, gaplar yordamida she'r va boshqa nasriy asarlar orqali ifodalab, boshqalar bilan ham shu tilda so'zlashmoqlikdir. Aleksand Faynberg ham o'z hislarini so'zlarda mujassam etgan shoirlardan edi.

Adib 1939-yil Toshkentda tavallud topgan. Uning nomi va ijodi o'zbek kitobxonlari, she'riyat ixlosmandlariga qadrli. O'ndan ortiq she'riy to'plamlari Toshkent, Moskva va Sankt-Peterburgda nashr etilgan. Shoir qalamiga mansub yettita badiiy filmlar ssenariylar o'ziga xosligi va hayotiyiligi bilan ajralib turadi. Yigirmadan ziyod multfilmlar, nasriy asarlar muallifi. Bu asarlarga har bir adabiyotsevarlarning, ayniqsa, yoshlarning qiziqishi ortiq bormoqda. Aleksandr Faynberg tarjimonlik sohasida ham salmoqli qalam tebratgan. U rusiyabon kitobxonlarga o'zbek shoirlarining ijodini ochib berdi. Moskvada O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning "Ruhlar isyoni" poemasi, Toshkentda "Oqqushlar galasi" nomli o'zbek shoirlari ijodidan qilingan tarjimalar jamlanmasi nashr etildi.

O'zbekiston xalq shoiri, Kinematografiya uyushmasi a'zosi Aleksandr Faynberg Rossiya Prezidenti farmoni bilan Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi madaniy aloqalarga munosib hissa qo'shganligi uchun Pushkin medali bilan taqdirlandi. Shoir 2009-yilda vafot etdi.

Darhaqiqat, shoirning ijodi juda sermahsul edi. Uning she'rlarida rang-baranglik, falsafiylik, teranlik tuyg'ulari yarqirab turadi. Har bir she'rida hayotga bo'lgan muhabbatni, shoir hislarining tabiat manzarasi bilan uyg'unligini ko'rish mumkin. Shoir she'rni oddiy matn emas, balki tirik mavjudot, qalb tovushi sifatida talqin qiladi. Aleksandr Faynbergning "Varaq" she'ri ham ana shu qarashlarning yorqin ifodasi bo'lib, unda shoir ijod, so'z va avlodlar oldidagi mas'uliyat masalasini chuqur badiiy obrazlar orqali ochib beradi.

*Yulduzlarni asraydi falak,*

*Teran dengiz asrar durlarni.*

*Daftarimdan yirtilgan varaq,*

*Asragin men yozgan she'rlarni.*

"Varaq" she'rining birinchi to'rtligidayoq she'r nima haqidaligini bilib olish qiyin emas. Shoir varaqqa murojaat etish orqali u uchun bebaho bo'lgan xazinasini ya'ni she'rlarini asrashini so'ramoqda. Bu to'rtlikda qiyos va ramz usulidan mohirona foydalanadi. Falakning yulduzlarni, dengizning esa durlarni asrashi - tabiatdagi eng qimmatli ne'matlarning muhofaza qilinishini anglatadi. "Daftarimdan yirtilgan varaq" obrazi tashqi tomondan oddiy va qadrsizdek ko'rinsa-da, unda shoir qalbidan chiqqan satrlar bitilgan. Shu bois shoir varaqdan o'z she'rlarini asrashni iltimos qiladi. Bu iltijo orqali shoir ijodga bo'lgan yuksak mas'uliyatini, so'zga nisbatan hurmatini ifodalaydi. Mazkur to'rtlik she'rning umumiy g'oyasini ochib beradi: she'r — qimmatbaho ma'naviy boylik bo'lib, u asrab-avaylanishga loyiqdir.

*She'r – nafaqat o'qimoq, uqmoq,*

*She'r – yurakda yangragan tovush:*

*Qutqargandek Taygada so'qmoq,*

*Tebrangandek ko'llarda qamish.*

Faynberg she'rni faqat ko'z bilan o'qiladigan matn sifatida emas, balki ruhiy tajriba sifatida ko'radi. Bu yerda "o'qimoq, uqmoq" — an'anaviy, akademik tushuncha bo'lsa, shoir uchun she'rning asl ma'nosi yurak orqali anglashda. Bu esa she'rni ko'proq inson qalbiga, hissiyotga bog'laydi. Bu fikr she'rni tirik, jonli mavjudot sifatida tasvirlaydi. Shu jumla orqali shoir she'rni inson ichidagi ovoz, ruhiy qo'llab-quvvatlovchi kuch sifatida ko'rsatadi. She'r nafaqat matn, balki qalbda jaranglaydigan musiqiy tovush kabi tajriba. "Taygada so'qmoq" — she'r qiyin paytlarda insonni yo'ldan adashmasligi uchun qutqaruvchi yo'l kabi. "Ko'llarda qamishning tebranishi" — she'rning erkinligi, tabiiyligi va nozik, sezgir kuchini ifodalaydi. Bu qiyoslar she'rning inson hayoti bilan chambarchas bog'liqligini, uning ruhiy va hissiy ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

*Har satrim – jon, har she’rim – yurak,*

*O’rmon, qushlar, bulutlarga xesh.*

*Daftarimdan yirtilgan varaq,*

*She’rlarimni asra peshma-pesh.*

Ushbu to’rtlikda Faynberg she’rini tirik, jonli mavjudot sifatida tasvirlaydi: har bir satrda jon, har bir she’r yurakdan chiqqan, ya’ni shoirning hissiyotlari va ruhiy holati bilan bog‘liq. Shu bilan birga, tabiat obrazlari — o’rmon, qushlar, bulutlar — she’rning erkinligi, tabiiyligi va inson hayoti bilan uyg‘unligini ko‘rsatadi. “Daftarimdan yirtilgan varaq” va “She’rlarimni asra peshma-pesh” misralari shoirning ijodiy merosga bo‘lgan mas’uliyatini ochib beradi. U she’rlarni avlodlarga yetkazishni, ularni qadrsiz qolmasligini xohlaydi. Shu fikr orqali shoir so‘z va ijodning abadiy qadriyat ekanini ta’kidlaydi va o‘quvchini ijodning ahamiyati haqida o‘ylashga undaydi.

*Avlodlarga kelmasin malol,*

*She’rlarim g‘am chekmasin nochor,*

*Shamol, dengiz va yaproq misol*

*Nafas olsin, kulsin beg‘ubor.*

Ushbu to’rtlikda Faynberg she’rining avlodlarga yetib borishi va qadrlanishi masalasiga e’tibor qaratadi. U she’rlarning yolg‘iz qolmasligi, g‘am chekmasligi, inson qalbiga yetib borishi kerakligini istaydi. Shu bilan birga, she’rni tabiat elementlari — shamol, dengiz, yaproq bilan qiyoslash orqali uning erkin, tabiiy va tirik mavjudot ekanini ko‘rsatadi. Oxirida esa shoir she’rni nafaqat saqlash, balki uning o‘yin, quvonch bilan “nafas olishi” zarurligini ta’kidlaydi. Bu fikrlar she’rning tirik, jonli va abadiy qadriyat ekanini o‘quvchiga his ettiradi.

Xulosa qilib aytganda, Aleksandr Faynbergning "Varaq" she'ri har bir o'quvchi qalbiga chuqur kirib bora oladigan, uni o'yga toldiradigan she'rlardan biridir. Ushbu she'rda shoir o'zining yagona va eng qimmatbaho narsasi she'r ekanligini aytib, uni xazinaga tenglashtiradi. Daftardagi bir varaqqa esa uni asrash vazifasini beradi. Shoir uchun 8uning she'rlari oddiy so'z emas, balki tabiatdagi tirik mavjudotdir. Shuning uchun ham u she'rlarini avlodlar tomonidan asralishiga, xuddi shamol, dengiz va yaproq singari erkin "nafas olib, beg'ubor kulib yashashi" ga umid qilmoqda. Ushbu she'rda ham Faynbergning o'ziga xos jihatini ya'ni tabiat bilan uyg'un yashaganini va ijod qilganini guvohi bo'lamiz.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://ilmlar.uz/faynberg-aleksandr-arkadevich-hayoti-va-ijodi/>
2. AleksandrFaynberg(1939-2009) <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/rus-she-riyati/aleksandr-faynberg-1939-2009>
3. Rustam Musurmon. Yonib turar derazam har tun (2009) <https://share.google/DazG8DmO22Mfi2kx2>
4. <https://share.google/iPxEq3rHmynrroqXV>
5. «Qoramaga qasida» Aleksandr Faynberg